

OILADAGI ZO'RAVONLIK MUHITI VA BOLA RIVOJLANISHI

Ismaylova Ra'no Nuraevna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrasini dotsenti v.b., PhD.

Annotatsiya: Maqolada oila instituti bolani tarbiyalashning asosiy omili sifatida ko'rib chiqiladi. Oilaviy zo'ravonlikning asosiy turlari va bu kabi zo'ravonlik muhitida tarbiyalangan bolalarning xulq-atvoridagi agressiya va og'ish holatlarining salbiy ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bola, tarbiya, oila, oilaviy munosabatlar, zo'ravonlik, agressiya, og'ish.

СРЕДА СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ И РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ

Ismailova Rano Nuraevna

Nizamiy Tashkentskiy gosudarstvennyiy pedagogicheskiy universitet, dozent kafedry «Прикладная психология», PhD

Аннотация: В статье рассматривается институт семьи как главный фактор воспитания ребенка. Обсуждаются основные виды домашнего насилия и негативное влияние агрессии и девиации на поведение детей, выросших в такой жестокой среде.

Ключевые слова: ребенок, воспитание, семья, семейные отношения, насилие, агрессия, девиации.

FAMILY VIOLENCE ENVIRONMENT AND CHILD DEVELOPMENT

Ismailova Rano Nuraevna

Nizamiy Tashkent State Pedagogical University associate professor of «Applied psychology» department, Ph.D

Abstract: The article examines the institution of family as the main factor in raising a child. The main types of domestic violence and the negative impact of aggression and deviation on the behavior of children raised in such a cruel environment are discussed.

Key words: child, education, family, family relationships, violence, aggression, deviation.

Kirish. Oila an'anaviy ravishda bolani tarbiyalashning asosiy institutidir. Inson oilada olgan barcha bilim va ko'nikmalarini butun keyingi hayoti davomida saqlab qoladi. Shaxsga ta'sir qilish muddati bo'yicha hech qanday ijtimoiy ta'lim muassasasi oila bilan taqqoslana olmaydi. Bu bola shaxsining asoslarini tashkil qiladi va u boshlang'ich ta'lim muassasasiga kirganida, u allaqachon shaxs sifatida shakllangan bo'ladi.

Afsuski, oila tarbiyada ham ijobiy, ham salbiy omil rolini o'ynashi mumkin. Ijobiy ta'sir shundaki, yaqin qarindoshlaridan tashqari hech kim bolani onasi, otasi, opa-singillari, akalari va boshqalar kabi sevmaydi yoki unga g'amxo'rlik qilmaydi. Shu bilan birga, boshqa hech qanday ijtimoiy institut bolalarni tarbiyalashda oila kabi zarar yetkaza olmaydi. Afsuski, zamonaviy jamiyatda disfunksiyali oilalar soni muttasil o'sib bormoqda. Biz ideal oila modelining aniq ta'rifini bera olmaymiz, lekin oilaviy munosabatlarda nimaga intilish kerakligini hamma biladi. Bu oilaviy qadriyatlarni ma'naviy idrok etish, moddiy farovonlikni va har bir a'zoning oilada sog'lom turmush tarzini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, bunday oilalarda voyaga yetayotgan bolalarga farovon oilalar yaratishning ijobiy tajribasini yetkazish uchun ushbu me'yorlarning barchasini singdirish zarur. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida "Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqiga ega" ekanligi keltirilgan.[1]

Shubhasiz, oilada tarbiya bir qator afzalliklarga ega. Bunga qulay hissiy muhit, g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash muhiti, bolalar va ota-onalar o'tasidagi ma'naviy yaqinlik, avlodlar o'tasidagi aloqalar, kattalarning ijobiy namunasi, oilaviy an'analar va bola shaxsini axloqiy tarbiyalash kiradi. Ammo disfunksiyali ota-onalar haqida gap ketganda, biz hammamiz aniq tushunamizki, ularning farzandlari uchun bunday «oilaviy qoidalar» ga rioya qilish va yashash ancha qiyinroq. Oilaviy disfunksiya haqida gapirish bir vaqtning o'zida ham oddiy, ham qiyin, chunki oila birlashmalarining turlari va uning shakllari

ham juda xilma-xildir.

«Disfunktional oila» tushunchasini ko‘rib chiqishga yondashish uchun oilaning asosiy funksiyalariga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. I.Yu. Shilov oila va oilaviy tarbiya muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni jamlab, oilaning quyidagi funksiyalarini belgilagan: reproduktiv, ta’lim, uy xo‘jaligi, iqtisodiy, birlamchi ijtimoiy nazorat sohasi, ma’naviy muloqot sohasi, ijtimoiy maqom, dam olish, hissiy (psixoterapevtik), jinsiy-erotik.[3]

Noto‘g‘ri oila yoki disfunktional oila - bu muntazam ravishda nizolar sodir bo‘ladigan va ko‘pincha ota-onal o‘z mas’uliyatini e’tiborsiz qoldirish va bir birlariga nisbatan zo‘ravonlik ko‘rsatish, bolalar ehtiyojini qondirmaslik, bu oilaning qolgan a’zolarini bu harakatlarga moslashishga majbur qiladi. Qoidaga ko‘ra, disfunktional oilalardagi bolalar bunday vaziyat normal ekanligini tushunib o‘sadi. Odatda, oilani disfunktional qiluqchchilar bu - ikki kattalar bo‘lib, ulardan biri abyuzer (zo‘ravon), ikkinchisi esa unga qaram yoki bog‘liqdir (ko‘pincha giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish yoki shaxsda ruhiy buzilishi bilan bog‘liq). Noto‘g‘ri oilada o’sgan ota-onalar ham o‘z ota-onalari munosabatlari modelini o‘zlashtirib olishlari va uni ortiqcha tuzatishlari mumkin. Ba’zi hollarda, zo‘ravon (er yoki xotin) ota-onal o‘z farzandlariga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsiz munosabatda bo‘ladi yoki e’tiborsiz qoldiradi, boshqa ota-onal esa bolaning aybini o‘z zimmasiga olishiga e’tiroz bildirmaydi.

Demak, disfunktional oila haqida to‘xtalganda, biz oilaning bir qator funksiyalari buzilgan yoki ishlagmaydigan holatini taxmin qilamiz. Birinchi navbatda, ta’lim, birlamchi ijtimoiy nazorat va hissiy (psixoterapevtik) kabi funksiyalarning buzilishiga e’tibor qaratish lozim.

Hissiy funksiya shundan iboratki, oilada inson (bola ham, kattalar ham) sevgi va hissiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi, bu oila a’zolarining bir-biriga bog‘lanishi, hamdardligi kabi hodisalarda namoyon bo‘ladi. Oiladan hamdardlik va qo‘llab-quvvatlanadigan odam, psixoterapevtik jihatdan ham ko‘mak oladi.

«Disfunktional oila» tushunchasi umumiydir, bu hodisaga bag‘ishlangan tadqiqotlar turli xil muammolarning ko‘rinishini hisobga oladi. Misol uchun, «disfunktional oila» kalit so‘zi bilan belgilangan tadqiqotlar markazida oiladagi zo‘ravonlik kabi hodisaning oqibatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan asarlarni o‘z ichiga oladi. «Oiladagi zo‘ravonlik» deganda turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan hokimiyatni, nazorat qilishni suiiste’mol qilish tushuniladi: hissiy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik, e’tiborsizlik, moliyaviy ekspluatatsiya, shaxsiy narsalarni yo‘q qilish, uy hayvonlariga shikast yetkazish, jismoniy va jinsiy hujumlar, qotillik va x.o.

Oilaning disfunktional holati bilan bog‘liq yana bir jihat - bu oila ichidagi guruh dinamikasining buzilishi. «Oilaviy guruh dinamikasi» atamasi (ota-onad dinamikasi) er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlardagi psixologik iqlimi anglatadi, bu o‘zaro bog‘liqlik, hukmronlik, bo‘ysunish, hamdardlik va er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari kabi parametrlarni o‘z ichiga oladi. Oila ichidagi guruh dinamikasini buzish jismoniy kuch ishlatish, shuningdek, ota-onal va bola munosabatlarida va turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi nizolarning yuqori chastotasi va intensivligi kabi hodisalarni o‘z ichiga oladi.[4]

Boshqa tomondan «oilal ichidagi faoliyatning xususiyatlari» murakkab tushunchani anglatadi, bu oila ichidagi his-tuyg‘ularni ifodalashning o‘ziga xos xususiyatlari, oila tarkibining xususiyatlari, nazorat qilish, oilaning tashqi munosabatlari, rollarni taqsimlash hamda har qanday muammolarni oila ichida hal qilish bilan bog‘liq oilaviy parametrlarni o‘z ichiga oladi.

Metodlar. Ilmiy-tadqiqotining metodologik va metodik asoslari oiladgi zo‘ravonlikni ierarxiya, qat’iy bo‘ysunish, har qanday vosita bilan bo‘ysunishni oqlaydigan me’yorlarga asoslangan ijtimoiy subektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqishga imkon beruvchi tarkibiy-funksional yondashuv, gender yondashuvi, bu shaxslarning xulq-atvorini ularning gender holatining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy va gender rollari va ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan izohlaydi.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy-tadqiqotning empirik asosi 2021-2023 yillarda Toshkent viloyati, Surxondaryo viloyati va Namangan viloyatlarida o‘tkazilgan miqdoriy va sifat usullaridan foydalangan holda olingan tadqiqot ma’lumotlaridan iborat edi.

Ushbu tadqiqotda mahallada oilada zo‘ravonlikka uchragan shaxslar (er yoki xotin) qatnashadilar. Tadqiqotda respondentlarning yosh diapazoni 18 yoshdan 55 yoshgacha, ma’lumot darajasi turlichay – o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ma’lumotli.

Ishtirokchilar tadqiqot vaqtida turli xil ish va oilaviy maqomga, yoshi, ta’lim darajasi va oilaviy ahvoli, farzandli, daromad darajasi, turmush o‘rtog‘idan iqtisodiy mustaqillik darajasi, spirtli ichimlik,

tamaki va giyohvand, moddalarni qabul qilish. Tadqiqotda jami 115 ta erkak, 209 ta ayollar ishtirok etdilar. Tadqiqot maqsadi bolaligida ota-onasi tomonidan zo'ravonlikka uchragan shaxslarni katta hayotlarida mavjud muammolari o'rtasidagi bog'liqlarni aniqlashga qaratilgan.

1-jadval.

**Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va
bolalikda ota-onasining munosabati orasidagi bog'liqlik (Xi-kvadrat mezoni
asosida)**

Bolalikda ota-onasining munosabati	1-3 yil	3-5 yil	5 yildan ortiq	Jami
Yaxshi	57,6%	21,6%	20,9%	100,0%
Yomon (urar edi, haqorat qilar edi, qattiq jazolar edi)	45,5%	36,4%	18,2%	100,0%
Befarq	34,5%	41,7%	23,8%	100,0%
Jami	48,6%	29,8%	21,6%	100,0%

Izoh: $\chi^2 = 13,547$; $p=0,009$

Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va bolalikda ota-onasining munosabati orasidagi bog'liqlik Xi-kvadrat mezoni asosida tekshirilganda $\chi^2 = 13,547$; $p=0,009$ statistik ahamiyat borligini ko'rish mumkin. 1-3 yil davomida zo'ravonlikka uchrab kelgan shaxslar bolaligida o'z ota-onasi uyida 57,6% yaxshi munosabatda, 45,5% yomon, va befarq 34,5%, 3-5 yil davomida 36,4% yomon va befarq 41,7% bilan yuqori ko'rsatgichda turibdi. 5 yildan ortiq davomiylikda esa yaxshi 20,9% ni va 23,8% befarq munosabat bilan bog'liqliknii ko'rishimiz mumkin.

2-jadval.

**Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va
bolalikda zo'ravonlikka uchraganda qanday kurashganligi orasidagi
bog'liqlik (Xi-kvadrat mezoni asosida)**

Bolalikda zo'ravonlikka uchraganda qanday kurashgansiz?	1-3 yil	3-5 yil	5 yildan ortiq	Jami
Uydan kochib ketar edim	58,5%	26,8%	14,6%	100,0%
Faqat yig'lar edim	29,6%	59,2%	11,3%	100,0%
Chidaganman	36,7%	18,3%	45,0%	100,0%
Boshqa	66,0%	15,1%	18,9%	100,0%
Jami	47,4%	31,2%	21,4%	100,0%

Turmush Izoh: $\chi^2 = 59,034$; $p=0,001$ zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va bolalikda zo'ravonlikka uchraganda qanday kurashganligi orasidagi bog'liqlik $\chi^2 = 59,034$; $p=0,001$ ko'rsatdi. 1-3 yil

davomiylidka uydan qochib ketish 58,5% va boshqa 66,0% yuqori ko'rsatkich, 3-5 yil davomiyligida 59,2% yuqori ko'rsatgich, 5 yildan ortiq davomiylidka esa chidaganman javomi 45,0 % bo'lib, yuqori ko'rsatgichda turibdi. Respondentlarning oilaviy zo'ravonlikka nisbatan javob harakati yechimga emas, balki muammodan qochishga qaratilganini ko'rshimiz mumkin

3-jadval.

**Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va hozir oilasidagi zo'ravonlik bilan qanday kurashayotganligi orasidagi bog'liqlik
(Xi-kvadrat mezoni asosida)**

Hozir oilangizdagি zo'ravonlik bilan qanday kurashyapsiz?	Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi			Jami
	1-3 yil	3-5 yil	5 yildan ortiq	
Ota-onamnikiga tez-tez ketib qolaman	50,0%	37,2%	12,8%	100,0%
Yig'lab ovunaman	41,2%	39,2%	19,6%	100,0%
Mahallaga chiqaman shikoyat qilib	45,1%	19,5%	35,4%	100,0%
Militsiyaga murojaat qilaman	78,9%	15,8%	5,3%	100,0%
Boshqa	42,9%	35,7%	21,4%	100,0%
Jami	48,1%	30,5%	21,4%	100,0%

Izoh: $\chi^2 = 24,859$; $p=0,002$

Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchrash davomiyligi va hozir oilasidagi zo'ravonlik bilan qanday kurashayotganligi orasidagi bog'liqlik Xi-kvadrat mezoni asosida tekshirilganda: $\chi^2 = 24,859$; $p=0,002$ natijani ko'rshimiz mumkin. 1-3 yil davomiyligida ota-onamnikiga tez-tez ketib qolaman javobi 50,0%, mahallaha chiqaman shikoyat qilib 45,1% va militsiyashhga murojaat etaman 78,9% eng yuqori ko'rsatgich bo'lган. Demak so'nggi yillarda oilaviy zo'ravonlik faqat oilaviy ish bo'lib qolmasdan huquq organlaridan va mahalladan yordam so'rash faollandashgan. 3-5 yil davomiyligida esa yig'lab ovunaman 39,2% va boshqa 35,5% ni tashkil etgan, 5 yildan ortiq davomiylidka esa mahalla chiqaman 35,4% yuqori ko'rsatgich. Demak mahalla oilaviy zo'ravonlik sodir etilganda jabrlangan shaxs uchun birinchi instansiya bo'lib turibdi.

Shuningdek, "Bolalikda ota-onangizning munosabati qanday bo'lган?" savoliga berilgan javoblarning shaxs ichki ziddiyatlariga bog'liqligi (Kruskal-Uollis H mezoni) asosida tekshirilganda Yomon (urar edi, xakorat kilar edi, qattik jazolar edi) Moslashuv ziddiyati 169,5 ni tashkil etgan. Ya'ni bolaligida ota-onasi tomonidan zo'ravonlikka uchragan shaxs hayoti davomida moslashish qiyin kechadi, ichki ziddiyatlar doimo to'sqinlik qilishini ko'rshimiz mumkin.

“Bolalikda ota-onangizning munosabati qanday bo‘lgan?” savoliga berilgan javoblarning sheriklarning rollardan kutilmalari namoyon bo‘lishiga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis H mezoni)

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha ranglar			N	r
	Yaxshi (N=167)	Yomon (urar edi, xakorat kilar edi kattik)	Befark (N=84)		
Jinslararo munosabatlar	140,0	177,3	120,6	10,0	0,007**
Shaxsiy identifikatsiya	148,7	175,6	103,6	24,9	0,000**
Xo‘jalik-maishiy (kutilma)	144,1	154,8	118,2	7,5	0,023*
Ota-onalik va tarbiyaviy (kutilma)	147,6	158,3	110,4	14,7	0,001**
Ijtimoiy faollik (kutilma)	143,8	165,0	116,2	10,1	0,006**
Emotsional-psixoterapeutik (kutilma)	140,9	165,5	121,9	6,6	0,037*
Tashqi jalb etuvchanlik (kutilma)	139,6	177,0	121,4	9,3	0,009**
Xo‘jalik-maishiy (da‘vogarlik)	141,0	138,3	128,8	1,4	0,506
Ota-onalik va tarbiyaviy (da‘vogarlik)	145,5	158,9	114,3	10,8	0,004**
Ijtimoiy faollik (da‘vogarlik)	142,5	159,8	120,0	6,8	0,034*
Emotsional-psixoterapeutik (da‘vogarlik)	145,1	176,2	110,7	17,1	0,000**
Tashqi jalb etuvchanlik (da‘vogarlik)	146,7	156,8	112,6	12,3	0,002**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$

“Bolalikda ota-onangizning munosabati qanday bo‘lgan?” savoliga berilgan javoblarning sheriklarning rollardan kutilmalari namoyon bo‘lishiga bog‘liqligi (Kruskal-Uollis H mezoni) asosida tekshirilganda Yomon (urar edi, xakorat kilar edi, kattik jazolar edi) Jinslararo munosabatlar 177,3, Shaxsiy identifikatsiya 175,6, Xo‘jalik-maishiy (kutilma) 154,8, Ota-onalik va tarbiyaviy (kutilma) 158,3, Ijtimoiy faollik (kutilma) 158,3, Ijtimoiy faollik (kutilma) 165,0, Emotsional-psixoterapeutik (kutilma) 165,5, Tashqi jalb etuvchanlik (kutilma) 177,0, Xo‘jalik-maishiy (da‘vogarlik) 138,3, Ota-onalik va tarbiyaviy (da‘vogarlik) 158,9, Ijtimoiy faollik (da‘vogarlik) 159,8, Emotsional-psixoterapeutik (da‘vogarlik) 176,2, Tashqi jalb etuvchanlik (da‘vogarlik) 156,8 ko‘rsatigichga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin. Bolalikda zo‘ravonlikka uchragan shaxs o‘z oilaviy hayotida ham muammolarga uchrashini, ya‘ni o‘z turmush o‘rtog‘iga nisbatan kutilma va da‘vogarlik darajasi yuqori bo‘lishi kuzatildi. Bu esa o‘z navbatida zo‘ravonlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Munozaralar. Kattalarda bolalik davridagi zo‘ravonlik psixologik buzilishlarni (o‘zini past baholash, aybdorlik, uyat), xulq-atvor va hissiy buzilishlarni keltirib chiqaradi: tashvish, depressiya, o‘z joniga qasd qilish harakati, travmadan keyingi stress buzilishi, giyohvandlik, yaqin yoki intim munosabatlardagi qiyinchiliklar, chegaradagi shaxs buzilishi, antisotsial shaxs buzilishi, somatik kasalliklarni keltirib

chiqarishi.

Ushbu xavf guruhidagi kattalar, o‘zлari ota-onalarda bo‘lganlarida, o‘z farzandlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi hissiy munosabatlarni ta’minlay olmaydilar. Farzandlarini haqorat qiladigan ota-onalar ko‘pincha ochiq yoki yashirin ruhiy kasalliklarning yuqori darajasini ko‘rsatadilar.

Umuman olganda, tadqiqotimiz natijalarini sarhisob qilsak, oilada zo‘ravonlikka uchragan bolalar xavotirlanish, o‘ziga ishonmaslik katta yoshda ham saqlanib qoladi. Zo‘ravonlikka eng universal va og‘ir reaksiya - bu o‘z-o‘zini hurmat qilishning pastligi, bu psixologik buzilishlarning davom etishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan bolalar o‘zlarining salbiy xususiyatga ega ekanligiga doimiy ishonch bilan yashaydilar. Shunday qilib, olingan empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik bolaning psixosotsial rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga xalaqit beradi, bu esa ushbu muammoning jiddiyligini va zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/acts/1297315>
2. Маҳмудходжаева У.М. Болаларнинг оиласи тазийқ ва зўравонликдан ҳимоя қилишнинг назарий, ҳуқуқий ва амалий муаммолари// http://t.me/ScienceBox_official
3. Шилов И.Ю. Фамилистика. Психология и педагогика семьи: Практикум // СПб: Петрополис, 2000.
4. Реан А.А., Коновалов И.А. Дисфункциональная семья как фактор агрессивного поведения подростков. Вестник Московского университета МВД России. 2020(8):292-301.